



ZAMONAVIY TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH - DAVR TALABI

Ijodbek Axmedov

*Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
direktori, dotsent, falsafa fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD).*

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimi bilan belgilanadi. Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga asos bo'lib, yosh avlodni zamonaviy bilimlar va ko'nikmalar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirish va uni yangi sifat bosqichiga ko'tarish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar har qanday tahsinga sazovordir. Ayniqsa, ta'lim tizimi ijtimoiy sohaning asosiy negizi hisoblangan holda uni takomillashtirish hamda xalqaro andozalarga moslashtirish pirovard maqsadimizga aylangan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq".¹

Joizki, bu boradagi faoliyatni sifatli amalga oshirish, ta'lim tizimni to'g'ri tashkil etish, bosqichma-bosqich rivojlanish tendensiyalarini belgilab berish hamda kafolatlangan kelajak istiqbollarini belgilashni taqozo qiladi. Shuning uchun, mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirib, tizimni har tomonlama etuk, ijodkor, raqobatbardosh hamda kreativ fikrlovchi kadrlar bilan ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bundan tashqari, ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish borasida ham strategik maqsadlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024-yil 21-iyundagi PQ 231-sonli Qarori metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Unga ko'ra, maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

2024-yil 30-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi"da "Jamiyatda o'qituvchi nufuzi va maqomini yanada oshirish", "Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish", "Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga yaratilayotgan imkoniyatlarni yanada kengaytirish", "Maktab o'quvchilarida milliy va vatanparvarlik ruhini shakllantirish tadbirlari to'g'risida", "O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va tizimlari raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish" borasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, sohada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga oid pedagoglarda kasb mahoratini oshirish bo'yicha yaxlit va uzluksiz tizimini joriy etish uchun A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mas'ulligida 2025-yil 1-yanvardan boshlab malaka oshirishning "vazirlik-malaka oshirish markazi – maktab va bog'cha" vertikal tizimini nazarda tutuvchi tartib ishlab chiqildi. Unga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/3864>



ko‘ra, maktablarda “Kasbiy rivojlanish soati”, “Kasbiy rivojlanish kuni”, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Metodik mahorat kuni”, “Metodik mahorat soati” tadbirlari joriy qilindi.

Hozirda mamlakatimiz bo‘ylab barcha maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida “Kasbiy rivojlanish kuni, soati”, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa “Metodik mahorat kuni soati” tadbirlari o‘tkazilib, unda asosiy e'tibor xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga qaratilgan.

Shulardan biri, Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi bu borada ta'sirchan faoliyat yuritib kelmoqda. Markaz jamoasi tizimni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabr kungi 867-sonli “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarori asosida tashkil qilib, jarayonda bir qator yutuqlarga erishib kelmoqda.

Xususan, 2025-yil 14-fevral kuni markazning navbatdagi yutuqlaridan biri “Iqtidor & Intellekt” elektron jurnalning faoliyat yuritishi uchun lisenziya qo‘lga kiritildi va ilmiy salohiyatni oshirish hamda markaz nufuzini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo‘shildi.

Mazkur yangilik maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlarining bir oylik o‘qishlari davomida nafaqat yangi dars o‘tish metodlari qolaversa, ilmiy faoliyat yuritishlari uchun ham imkoniyat tug‘ildi. Ular o‘zlarining bitiruv loyiha ishlari va mikro dars loyihasini amaliyotga joriy etish maqsadida maqola shaklida chop ettirib, faoliyatlariga yangicha yondashuvni boshlab berishadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish – jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartidir. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, kompetensiyaga asoslangan ta'limni yo‘lga qo‘yish va xalqaro standartlarga moslashish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanishi lozim. Har bir inson uchun sifatli va teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish orqali biz kelajak avlodning bilimli, ijodkor va raqobatbardosh bo‘lishiga yo‘l ochamiz. Shu bois, ta'lim sohasidagi islohotlar izchil va samarali olib borilishi lozim. Chunki ta'lim – jamiyat taraqqiyotining kalitidir!